



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

133-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son qarori ijrosi haqida”gi 133-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart -sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 133-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 133-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son qarori bilan:

2025-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilanganligi:

- (a) xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;
- (b) sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta‘minlash;
- (v) 52,2 mingta xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 104-son qarori 2-bandi “a” kichik bandida nazarda tutilgan 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilganligi;

mazkur qarorning 3-bandidagi imtiyoz tadbirkorlik subyektlarining har oyda ish haqi miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,5 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda hisoblangan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan xodimlariga nisbatan qo‘llanganligi;

2025-yilda:

- (a) xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so‘m miqdorida kredit mablag‘lari;
- (b) xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so‘m miqdoridagi mablag‘lar yo‘naltirilganligi;

hududlarda 2025-yilda quyidagi 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta‘minlash uchun Davlat budgetidan 1 trillion so‘m yo‘naltirilganligi:

- (a) 72 ta sohil bo‘yi dam olish maskanlari;
- (b) 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog‘lari;
- (v) 154 ta tunu kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo‘nalishlarga ixtisoslashgan savdo va ko‘ngilochar ko‘chalar;

- (g) 364 ta yo‘lbo‘yi va boshqa servis obyektlarini tashkil etish;

yengil avtotransport vositalarida yo‘lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga kiritilganligi hamda ular ushbu faoliyat bilan litsenziya varaqasi asosida shug‘ullanishi belgilanganligi;

2025-yil 1-iyuldan boshlab 3-ilovaga muvofiq davlat xizmatlari va funksiyalari xususiy sektorga o'tkazilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga soliqqa tortish uchun ko'chmas mulk ijara to'lovi minimal stavkalariga nisbatan tumanlar (shaharlar) va zonalarga qarab o'rnatiladigan oshiruvchi koeffitsiyentni faoliyat yoki obyekt turlari bo'yicha tabaqalashtirish vakolati berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi hamda Soliq qo'mitasining 2025-yil 1-apreldan boshlab soliq organlari xodimlari tomonidan ularga biriktirilgan korxonalarda yoki mahallalardagi tadbirkorlik subyektlarida 4-ilovada keltirilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlanganda quyidagi tartibni joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi:

(a) birinchi marta ogohlantirish;

(b) ogohlantirishdan so'ng uch kun muddatda soliqqa oid huquqbuzarlik bartaraf etilmagani yoki takroran aniqlangani sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishga asos bo'lishi;

(v) sayyor soliq tekshiruvini faqat mazkur qarorga 4-ilovada keltirilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha amalga oshirish va uni tekshiruv boshlangandan so'ng 24 soat ichida "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida amalga oshirishga ruxsat etish;

(g) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma sayyor soliq tekshiruvi bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos bo'lib hisoblanishi;

2025-yil 1-maydan boshlab "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" avtomatlashtirilgan dasturi natijalariga asosan soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish) holatlari bo'yicha o'tkaziladigan soliq tekshiruvlariga tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida 10 ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qilish talabi tatbiq etilmasligi;

2025-yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

mazkur qarorning maqsadlariga erishish doirasida quyidagilar mas'ul etib belgilanganligi:

(a) "O'zmilliybank" AJ (Mirsoatov) va tijorat banklari – Toshkent shahrida 1,5 million, hududlarda 1,5 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlashga;

(b) Transport vazirligi (Mahkamov) – transport xizmatlari hajmini 185 trillion so'mdan, eksportini 2,3 milliard AQSH dollaridan oshirishga;

(v) Raqamli texnologiyalar vazirligi (SHermatov) – aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini 80 trillion so'mdan, eksportini 1 milliard AQSH dollaridan oshirishga;

(g) Markaziy bank (Ishmetov) – ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tijorat banklarida ko'rsatilayotgan masofaviy xizmatlar hajmini kamida 30 foizga oshirishga;

(d) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov) – savdo xizmatlari hajmini 174 trillion so'mdan oshirishga;

(ye) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Sharipov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (Umarova) – ta'lim xizmatlari hajmini 37 trillion so'mdan oshirishga;

(j) Sog'liqni saqlash vazirligi (Xudayarov) – 230 ming xorijiy fuqaroni davolash va ularga diagnostika xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilib, tibbiy xizmatlar eksportini 250 million AQSH dollariga yetkazishga;

(z) Turizm qo'mitasi (Shadiyev) – 16 million xorijiy turistlarni jalb qilib, turizm xizmatlari eksportini 4,5 milliard AQSH dollariga yetkazishga;

joylarda xizmatlar sohasida amalga oshirilgan loyihalarning natijadorligini o'rganish hamda ish o'rinlari yaratilishi haqqoniyligi ustidan nazorat qilish Bosh prokuror o'rinbosari I.M. Adxamovga yuklanganligi;

belgilanishicha, xizmatlar sohasida aholi bandligini ta'minlash ko'rsatkichlari, shu jumladan, amalga oshirilgan loyihalarning natijadorligi hamda ish o'rinlari yaratilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ – 12-son qarorining 25-bandida belgilangan tartib asosida amalga oshirilishi, bunda:

(a) "O'zmilliybank" AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda har oyning 20-sanasiga qadar xizmat ko'rsatish sohasidagi loyihalar va aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarning tizimli monitoringi natijalarini Bosh prokuraturaga kiritib borishi;

(b) Soliq qo‘mitasi har oyning 20-sanasiga qadar “yangiish.mehnat.uz” elektron platformasi orqali qabul qilingan ma‘lumotlarning haqqoniyligini tekshirgandan so‘ng ushbu ma‘lumotlar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan Bosh prokuraturaga hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishi;

(v) Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi “online-mahalla.uz”, “yangiish.mehnat.uz” platformalaridagi, hududlarda o‘tkazilgan o‘rganishlar yuzasidan tayyorlangan ma‘lumotlar asosida har oyning 25-sanasiga qadar aholi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 6-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov